

O'ZBEKISTON TARJIMA MAKTABINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKKA TA'SIRI

F.B.Mattiyeva

Samarqand davlat chet tillar instituti Mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: feruzamattiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Tarjimonlarning o'ziga xos va milliy tafakkurga mos yondoshuvlari, o'zbek tilining rivojlanishi, madaniy aloqalarning mustahkamlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarjima san'ati, bir xalqning ma'naviy boyliklarini boshqalarga yetkazib berishda eng to'g'ri yo'l sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: tarjimon, rivojlanish, tarjima san'ati, tarjimashunoslik maktab

O'zbek tarjima maktabi bugungi kunda jadal rivojlanib kelmoqda. Ushbu sohada O'zbekiston olimlari, jumladan, O. Mo'minov, N. Qambarov, J. Sharipov, I. To'xtasinov, E. Murotova va G. Ermuhamedova kabi mutaxassislar katta hissalarini qo'shgan. Ularning ilmiy ishlari va tarjima sohasidagi yutuqlari, o'zbek tilining boyishiga hamda milliy madaniyatning yanada rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Tarjima san'ati o'zining taraqqiyotini o'zbek tarixida turli davrlarda namoyon qilgan.

XII-XVI asrlarda Xuroson mintaqasida tarjimashunoslik maktabining rivojlanish davri boshlandi. Ushbu davrda arab va fors tillaridan turli asarlar, jumladan, "Tafsir al-Jalalayn" (Jaloliddin Sayyid va Jaloliddin Mahalliy), "Al-Burhan fi Ilm al-Mantiq" (Fahreddin al-Razi) kabi muhim ilmiy manbalar tarjima qilindi. Bu asarlar o'z zamonining ilg'or ilm-fanini tushunishga va tarqatishga katta yordam berdi.

XVI-XVIII asrlarda Qoshg'arda tarjimashunoslik markazining paydo bo'lishi va faoliyat yuritishi sohaning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu davrda "Qur'on", "Bustan" va "Gulistan" (Sa'diy Sherozi), "Al-Muqaddimah" (Ibn Xaldun) kabi mashhur asarlar arab, turk va fors tillaridan tarjima qilindi, ular o'zbek adabiyotiga yangi g'oyalar va ilmiy yondashuvlarni olib keldi.

XIX-XX asrning boshlarida Turkistonda tarjimonlik maktabi yanada rivojlandi. Shu davrda Ibn Sino, Pushkinning "Yevgeniy Onegin", Tolstoyning "Anna Karenina" kabi jahon adabiyotining nufuzli asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu tarjimalar, nafaqat o'zbek adabiyotining mustahkamlanishiga, balki o'z xalqining dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qildi.

XX asrning boshlarida esa ma'rifatparvar tarjimonlar, jumladan, Fitrat, Sadridin Ayni, Muhammadjon Buxoriy, Abdulla Qodiriy va Erkin Vohidov kabi buyuk insonlar o'z tarjimonlik faoliyatlari orqali o'zbek tilining o'ziga xosligini saqlab qolishga, xalqimizning ma'naviy merosini keng ommaga yetkazishga katta hissa qo'shdilar. Ularning tarjimalari o'zbek adabiyotining oltin fondiga aylangan.

Bugungi kunda O'zbekiston tarjima maktabi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, zamonaviy tilshunoslik va tarjimonlikni yangi darajaga olib chiqmoqda. Tarjimonlarning o'ziga xos va milliy tafakkurga mos yondoshuvlari, o'zbek tilining rivojlanishi, madaniy aloqalarning mustahkamlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarjima san'ati, bir xalqning ma'naviy boyliklarini boshqalarga yetkazib berishda eng to'g'ri yo'l sifatida e'tirof etilgan. Tarjimonlar bu san'atda yuqori mahoratni namoyon qilishadi, va bu jarayon adabiy va madaniy aloqalarni

mustahkamlashga yordam beradi. Buni misol sifatida, nemis yozuvchisi Yo‘xann Volfgang fon Gertenning mashhur “Faust” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi yuksak mahoratni keltirish mumkin.

“Faust” asari o‘zbek tiliga ikki muhim tarjimon — Erkin Vohidov va Posho Ali Usmon tomonidan tarjima qilingan. Erkin Vohidov dastlab asarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan, o‘zining o‘ziga xos uslubi va yuqori mahorati bilan. Keyin, 2001 yilda, Posho Ali Usmon, Samarqandlik iste’dodli tarjimon, asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olmon tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi. Mustaqillikdan so‘ng amalga oshirilgan bu tarjima, o‘zbek tarjima san’atida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Har ikkala tarjima (Erkin Vohidov va Posho Ali Usmon) o‘ziga xos, yuksak qiymatga ega va muvaffaqiyatli bo‘ldi. Masalan, quyidagi qatorni tarjima qilishda ikki tarjimonning yondashuvlarini solishtirsak:

Original nemis tilidagi qator:

“So braucht sie denn, die schönen Kräfte”

Asl ma’no:

“Sizga shunday chiroyli kuch kerak”.

Posho Ali Usmon tarjimasi:

“Madad bo‘lgay sizga insonga xos qudrat”.

Erkin Vohidov tarjimasi:

“O‘shal sehringizni ko‘rsating”.

Har ikkala tarjimon ham o‘z uslubi bilan o‘zgacha tarjimalarni taqdim etgan. Posho Ali Usmon, badiiy ma’no va ifodaning chuqurligini saqlab qolgan holda, “qudrat” so‘zini ishlatgan, bu orqali asli mo‘jizaviy kuchni ta’kidlashga erishgan. Erkin Vohidov esa o‘zbek tiliga yengil va jonli uslubda, sehr va kuchni birlashtirgan tarzda tarjima qilgan.

Bu misol, tarjimonlarning har biri o‘ziga xos uslub va yondashuvga ega ekanligini, lekin har bir tarjima o‘z ma’no va badiiy yuksakligiga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Har bir tarjima o‘z vaqtida o‘zining o‘zgacha ahamiyatiga ega bo‘lib, “Faust” asarining o‘zbek tilidagi tarjimalari adabiyotimizda alohida o‘rin tutadi.

Nemis tilshunosi K. Reys, tarjima faoliyatini rivojlantirishda birinchi bo‘lib, tarjimaga yo‘naltirilgan matnlar tasnifini taklif qilgan. U matnlarni uchta asosiy turga ajratib, har bir turdagi matnlarning kontekstual va struktural xususiyatlarini aniqlab bergan. Bu tasnif tarjima ishlari uchun foydali bo‘lib, matnlarning turini, uning maqsadiga qarab qanday tarjima qilish kerakligini tushunishga yordam beradi.

Reysning tasnifida quyidagi matn turlari keltirilgan:

I. Informations (kontentga yo‘naltirilgan tur): Bu turdagi matnlar ko‘pincha ma’lumot berish va tushuntirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi ma’lum bir sohada yoki mavzuda aniq va ishonchli ma’lumot taqdim etishdir. Bunga press-revizlar, yangiliklar hisoboti, ilmiy hisobotlar, foydalanuvchi yo‘riqnomalari, shartnomalar, o‘quv matnlari, badiiy adabiyotlar va boshqa shu kabi matnlar kiradi.

II. Ekstressiv (shaklga qaratilgan): Bu turdagi matnlar asosan hissiy ta’sir ko‘rsatish yoki shaxsiy fikrni ifodalashga qaratilgan bo‘ladi. Bu matnlar ko‘pincha o‘quvchi yoki tinglovchini hissiy jihatdan ta’sir etishni maqsad qiladi. Insho, biografiyalar, romanlar, qissalar, she’riyatning barcha asosiy shakllari, vzlilar va boshqa badiiy janrlarda yaratilgan matnlar ekstressiv turga kiradi.

III. Operatsion (murojaatga, murojaatga yo‘naltirilgan tur): Bu turdagi matnlar ko‘pincha tilning ishonitirish funksiyasini ifodalovchi, boshqa tilshunoslik elementlarini o‘z ichiga olgan matnlardir. Murojaatga yoki muayyan harakatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, reklama, vaz, satirik she‘rlar, targ‘ibot va reklama matnlari kabi turli xil matnlar bu toifaga kiradi.

Reysning tasnifi, har bir matn turining xususiyatlarini o‘rganish va ularni tarjima qilishda qo‘llaniladigan metodlarni aniqlashda yordam beradi. Bu, shuningdek, ITF (Izchil tarjima faoliyati) uchun maxsus matnlar tanlash mezonlarini ishlab chiqishda ham foydalidir.

Tarjima sohasida yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish uchun matnlarni tanlashda, uning turini, maqsadini va auditoriyasini hisobga olish zarur. Tarjimonlar matnni tarjima qilishda, uning maqsadiga mos ravishda so‘zlarni va iboralarni tanlashga e‘tibor berishlari kerak. Shunday qilib, K. Reysning tasnifi, tarjimonlarga o‘z ishlarini yanada samarali qilish va tilning barcha jihatlaridan to‘liq foydalanish imkonini yaratadi.

Dunyodagi barcha davlatlarda, shuningdek, o‘z vatanimizda ham, ona tilidan tashqari boshqa millat tillarini o‘rganish an‘analari qadimdan mavjud. Bu tilni o‘rganish jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida, rivojlanishning muhim qismidir. Bir nechta tillarni bilish, o‘zaro madaniy aloqalar va iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Goethe J.W. Faust. Erster Teil. -Л.: Художественная литература, 1971.
2. Гёте Й.В. Фауст. Пошо Али Усмон таржимаси. - Т., Sharq, 2007.
3. Гёте. Фауст. Э.Воҳидов тарж. - Т., Адабиёт ва санъат нашр, 1972.
4. Flagstad Ch. Psychologie der Sprachpadagogik. Leipzig, Berlin, Verl, von Teubner B.G. 1913.
5. Reiss K. Translation Criticism. The Potentialities and Limitations. Categories and Criteria for Translation Quality. // Manchester: St Jerome. 1971/2000 [Translated from German by E. Rhodes.]